



**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK FAOLIYAT VA  
MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY  
MUNOSABATLARNING AXAMIYATI**

---

*Toxirova Shaxnoza Maxmudjon qizi  
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE  
nodavlat oliv ta'lim muassasasi  
Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va  
jismoniy tarbiya kafedrasi o'qituvchisi  
Tel: +99894 551-78-78*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada faoliyat, pedagogik faoliyat, tashkil etish, kasb tushunchasi, kasbiy faoliyat, ijtimoiy faol, ijodkor o'qituvchi shaxsi, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olish, tizimli malakasini oshirib boorish, talabalarda o'quv faoliyatiga ongli munosabatni shakllantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar;** O'qituvchi, talaba, faoliyat, pedagogik faoliyat, kasbiy faoliyat, ijodkor o'qituvchi, ijtimoiy munosabatlar, ijodiy izlanish.

**АКСИОМА ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И КУЛЬТУРЫ У  
БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

---

Тохирова Шахноза Махмуджон кизи  
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE  
негосударственное высшее учебное заведение  
Дошкольное-начальное образование и  
преподаватель кафедры физической культуры  
Тел: +99894 551-78-78

**Аннотация;** В данной статье освещаются вопросы деятельности, педагогической деятельности, организации, понятия профессии, профессиональной деятельности, социальной активности, личности творческого педагога, учета квалификации, способностей и интересов работников, системного повышения квалификации, формирования у учащихся осознанного отношения к учебной деятельности.



**Ключевые слова;** Учитель, ученик, деятельность, педагогическая деятельность, профессиональная деятельность, творческий учитель, общественные отношения, творческий поиск.

## THE MORAL OF SOCIAL RELATIONS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL ACTIVITY AND CULTURE IN FUTURE TEACHERS

Toxirova Shaxnoza Maxmudjon qizi  
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE  
non-governmental higher education institution  
Preschool-primary education and  
teacher of the Department of physical education  
Tel: +99894 551-78-78

**Abstract;** This article covers the issues of activity, pedagogical activity, organization, concept of profession, professional activity, personality of a socially active, creative teacher, consideration of qualifications, abilities and interests of employees, systematic professional development, formation of a conscious attitude to educational activities in students.

**Keywords;** Teacher, student, activity, pedagogical activity, professional activist, creative teacher, social relations, creative search.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sон qarorida “Ta’lim sifatini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish, bitiruvchilarining bandligini ta’minalash, pedagog xodimlar va olimlarning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan faoliyat ustidan ta’sirchan parlament nazoratini yo‘lga qo‘yish”[1.] kerakligini alohida takildlaganlar. O‘qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır. Shunday ekan jamiyatda o‘qituvchi ijtimoiy faol, ijodkor, mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan, kasbiy bilim hamda malakaga ega bo‘lgan mutaxassis bo‘lib, jamoada o‘z qobiliyati, insonparvarlik fazilatlari, obro‘-e’tibori va yuksak madaniyatini bilan axamiyatlidir. Shuningdek, Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini islox qilish jarayonida o‘qituvchilarda yuksak kasbiy mahoratni rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni, o‘qituvchiga xos muhim sifatlarni takomillashtirish asosida Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik faoliyat va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan alohida pedagogik vazifalar yuzaga kelmoqda.



“Faoliyat – 1) anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakatlar yig‘indisi; 2) shaxs tomonidan tabiiy, ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi.

Pedagogik faoliyat – o‘qituvchi tomonidan aniq maqsadlarga muvofiq tashkil etiladigan kasbiy harakatlar majmui”[2.106].

O‘qituvchi tomonidan pedagogik faoliyat (o‘qituvchi mehnati)ning tashkil etilishi kasbiy mehnatning tashkiliy-amaliy jihatdan oqilona uyushtirilishini ifodalaydi. Pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish talab etiladi.

Pedagogik-psixologik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning fe’l-atvori shakllanishi, uning shaxsiyatining xususiyatlari nafaqat atrof-muhitga bog‘liq, balki o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati bilan yuqori darajada belgilanadi, psixologik tadqiqotlar natijalari o‘qituvchi o‘z shaxsini faol ravishda qurishi har bir o‘qituvchining shaxsiyatini shakllantirishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi, o‘z tashkilotchilik darajasini oshirishi va o‘quvchilarning tashkilotchiligin yaxshilashi mumkin degan xulosaga olib keladi.

Insoniyat o‘z tajribasini mustahkamlashning yaxshi rivojlangan vositalariga va birinchi navbatda tilga ega bo‘lganligi sababli, biz bilimlarimizning eng murakkab yutuqlarini bir-birimizga (avloddan avlodga) yetkazishimiz mumkin. Biz qancha ko‘p o‘rgansak, bu bilim elementlari, ijtimoiy tajribaning bu donalari, ijtimoiy amaliyot insoniyat ixtiyorida bo‘ladi. “Har bir inson voqelikni o‘z sezgilarini bilan idrok etadi, lekin bu voqelikni boshqa odamlar, butun insoniyat bu haqda nimalarni bilihini o‘rganish orqali bila boshlaydi”[3.12].. F.Engelsning fikricha, inson sezgilarini faoliyati albatta fikrlash faoliyati bilan qo‘silib ketadi.

O‘qituvchining birinchi guruh nazariy tamoyillari insonning intelektual faoliyati (intelektual hulq-atvori) hususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Agar shartli refleks avtomatik bo‘lsa, unda intelektual harakat xatti-xrakatlarning bir nechta usullarini tanlashni nazarda tutadi, uni bajarish uchun biz o‘zimizni vazifaga yo‘naltirishimiz, xatti-harakatlarimizning bunday shakllari va vositalarini belgilash uchun uni tahlil qilishimiz kerak shunda eng qisqa yo‘l bilan hal qilinishi mumkin.

“Kasb tushunchasi – bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o‘tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo‘lib xizmat qiluvchi mashg‘ulotdir”[4.68]. Kasb bir xil faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilarni birlashtiradi va bu faoliyat ichida ma’lum aloqalar va axloq normalari o‘rnataladi.



“Kasbiy imkoniyatlar – ma’lum faoliyatning shaxs irodasi bilan bog‘liq obektiv shart-sharoitlarini o‘zida aks ettiradi”[5.43].

Pedagogik olim V.A.Slastenin bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalarini tadqiq etar ekan, “yuksak professionalizm, ya’ni kasbiy yetuklikka erishishning obektiv omillariga olingan ta’limning sifatini, subyektiv omillariga esa shaxsning qobiliyati, kasbiy yo‘nalganligi, pedagogik vazifalarni samarali xal qila olishdagi mas’uliyati va mutaxassislikka yondashuvini kiritadi”[6.39].

Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveytsariya, Germaniya, Malaziya, Kanadaning mutaxassislar tayyorlash bilan bog‘liq tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’limning asosiy vazifasi. O‘quvchilarda tanlangan mutaxassislikning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta’milnadi.

Inson o‘z odatlarning bir xillik kun tartibi hukmronligi ta’siriga kirib, o‘zining rejalarini keyingi kunga yoki haftaga yoki yillarga qoldira boshlaydi. O‘z-o‘zini ishontirish, sobit qadam iroda orqaligina o‘zining qobiliyatlarini namayon etishga erishish mumkin.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasini tashkil etish, ularni hayotga va mehnatga tayyorlash hamda bu jarayonni boshqarishga qaratilgan.

Shaxs o‘zining ijtimoiy faolligi va o‘z sohasining mahoratlari mutaxassis sifatida ijtimoiy tafakkurining rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsata olmog‘i lozim. Ijtimoiy faollik, ijodkorlik talaba yoshlarni ijtimoiy bilimdonlik, ijtimoiy ong asosida ijtimoiy hayotga tayyorgarlik darajasini ta’minlovchi mezon vazifasini o‘taydi.

Shu o‘rinda e’tirof etish kerakki, tub islohotlar davrida jamiyat hayotiga daxldorlik, millat va mamlakat taqdiriga befarq bo‘lmaslik xissi shakllangan yoshlarga bo‘lgan ehtiyojni hayotning o‘zi toqozo etib, kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi.

Darhaqiqat, ijtimoiy faol, ijodkor va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy zamini oliy ta’limgacha bo‘lgan davrda, ya’ni o‘quvchi yoshlarni ongli va asosli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, oliy ta’lim muassasasida kasb tarbiyasi amalga oshiriladi. Bu jarayonda yangicha fikrlash va yangicha dunyoqarash tarkib topadi. O‘z navbatida, yangicha dunyoqarash dunyoviy va taraqqiyat parvar mazmunga ega bo‘ladi. Dunyoviylik tafakkuri ilmiylik prinsipiga tayanishi asosida o‘z e’tirofini topadi.



Ijtimoiy faollik, ijodkorlik ijtimoiy sog‘lomlashuvga olib keladi. Millatimiz o‘tmishining muayyan davridagi ijtimoiy shart-sharoitlar oqavasi hisoblangan “ahloqiy” manzaralarni saqlanib, hatto tahdid solib kelayotganligi, ya’ni loqaydlik, beg‘amlik, befarqlik, e’tiborsizlik, yolg‘onchilik, g‘iybat, hasad, o‘g‘irlik, ichkilik, fohishabozlik kabilar va shu bilan bir qatorda giyohvandlik, diniy eksteremizm hamda terrorizm global muammo bo‘lib, asr vabosiga aylanib borayotgan bir sharoitda, ijtimoiy faol, ijodkor shaxs tarbiyasi alohida dolzarb pedagogik muammo sanaladi.

O‘qituvchi hamisha ijtimoiy munosabatlar muvozanatini ko‘ra bilishga, uni rivojlanish sari unday olishga qodir bo‘lmog‘i lozim. Ijtimoiy faollik, ijodkorlik har doim yangicha pedagogik idrokni talab etadi. Shunga muvofiq, o‘qituvchining ijtimoiy faolligi jamiyatni ijtimoiy sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Jamiyat talabi va buyurtmasi asosida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligini shakllantirish aynan pedagogik yo‘nalishida tadqiqi etilmaganligi tadqiqot muammosining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Bizning ishimizda ijtimoiy faol, ijodkor o‘qituvchi shaxsini shakllantirish bosh muammo qilib qo‘yilgan. Chunki o‘qituvchining ijtimoiy faolligi, ijodkorligi ma’naviy-ahloqiy mazmun kasb etib, jamiyat rivojida alohida mavqega ega hisoblanadi.

Ijtimoiy faol, ijodkor o‘qituvchi mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, kasbiy bilim hamda malakaga ega bo‘lgan mutaxassis bo‘lib, jamoada o‘z qobiliyati, insonparvarlik fazilatlari, obro‘ - e’tibori va yuksak madaniyati bilan alohida ajralib turadi.

Bugungi tub islohatlar amalga oshayotgan tezkor va globallashuv davrida mustaqil va erkin fikrlaydigan, ijodkor, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash davlat ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb vazifadir. Afsuski ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida mazkur muammoga doir ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa ushbu masalalarda muayyan samaradorlikka erishish yo‘lida jiddiy to‘sinq bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa shundan iboratki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik faoliyat va madaniyatini shakllantirish mazmuni ancha keng tushuncha bo‘lib, unga avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni to‘g‘ri tanlash va joy-joyiga qo‘yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish qo‘llanilayotgan usullar tizimini uzlucksiz takomillashtirish va ta’lim-tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi. O‘qituvchilar pedagogik faoliyati jarayonida o‘z ishlarining chinakam ustalariga aylanadilar. Sog‘lom fikr



yurituvchi har bir kishi mahoratli tarbiyachi bo‘la oladi, mahoratga tajriba hamda fikr yuritish orqali erishiladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori
2. Erkaboeva N. Pedagogik mahorat / O‘quv qo‘llanma. – Qo‘qon: Qo‘qon DPI nashriyoti, 2020.– 106 bet.
3. Педагогика. / Под ред. Ю.К. Бабанского. - М.: Просвещение, 1983
4. Онышків З. М. Основы школознавства. - Тернополь, 1996
5. Демакова И.Д., С верою в ученика, - М: Просвещение, 2001
6. Керженцев П.М., Принципы организации труда, - М: 1999